



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
YENGIL SANOATNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI

AGENCY FOR THE DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY UNDER
THE CABINET OF MINISTERS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUYRUQ 41

27 iyul 2026 yil.

**Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining
korruptsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki
me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi va Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlarini tartibga solish va qayta tasdiqlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

- Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi (*keyingi o'rinlarda - Agentlik*) da korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash hamda korruptsiyani oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan Ishchi komissiya tarkibi, **1-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati, **2-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom, **3-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikning odob-axloq kodeksi, **4-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikning odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom, **5-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikning odob-axloq komissiyasi tarkibi, **6-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikning etika va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma, **7-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma, **8-ilovaga** muvofiq;

- Agentlikda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma, **9-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikda tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati, **10-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikda davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma, **11-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti, **12-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti, **13-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti, **14-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti, **15-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom, **16-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikning sovg'alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha siyosati, **17-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikning komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassisi faoliyati to'g'risidagi nizom, **18-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikning korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassisining lavozim yo'riqnomasi, **19-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlik faoliyatida ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati, **20-ilogvaga** muvofiq;
- Agentlikda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar toifalarining namunaviy shakllar ilovalaridagi tartib raqami ro'yxati, **21-ilogvaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining **2026-yil 14-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi xodimlarining Odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi **3-son buyrug'i** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassisi (A.Muxammatov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassisi (U.Yaxshiboyev) mazkur buyruq bilan muassasaning barcha xodimlarini tanishtirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



N. Xolmurodov